# YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2020- yilning yanvar–sentabrida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 43 000,1 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 2,4 % ga o`sdi.

YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishidaToshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,5 % ga yetdi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

| | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, 2019- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| | ***2019- yil*** | ***2020- yil*** | |
| **I. YaHM** | **36 911,6** | **43 000,1** | **102,4** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 34 284,5 | 40 930,3 | 102,4 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 2 627,1 | 2 069,8 | 102,4 |
| **II.Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati** | **34 284,5** | **40 930,3** | **102,4** |
| **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi** | **8 449,3** | **10 266,5** | **104,0** |
| **Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)** | **17 660,8** | **21 351,1** | **102,8** |
| sanoat | 15 980,4 | 19 340,8 | 103,0 |
| qurilish | 1 680,4 | 2 010,3 | 100,9 |

| | | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, 2019- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da |
|---|---|---|---|---|
| | | 2019- yil | 2020- yil | |
| | **Xizmatlar** | **8 174,4** | **9 312,7** | **100,0** |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2 417,8 | 2 720,3 | 100,1 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 715,1 | 1 960,5 | 103,7 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 4 041,5 | 4 631,9 | 98,3 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 14 527,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkichning o'sish sur'ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 %ga ko'pdir.

**Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



| | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|
| **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi** (ming so`m) | 12 666,1 | 14 527,5 |
| **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari** *(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)* | 5,4 | 0,8 |

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo’shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,8 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo’jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,5 %ga ko’paydi va hisobot davrida 25,1 %ni tashkil etdi. Sanoat tarmog’ining ulushi 47,3 % dan iborat bo`lib, 0,7 % ga oshdi, qurilishniki esa 4,9 %ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan o’zgarishsiz qoldi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 22,7 % ni tashkil qildi va o’tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 1,2 % punktga pasaydi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha YaHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

| | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|
| **I. YaHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati | 92,9 | 95,2 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 7,1 | 4,8 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi** | **24,6** | **25,1** |
| **Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)** | **51,5** | **52,2** |
| sanoat | 46,6 | 47,3 |
| qurilish | 4,9 | 4,9 |
| **Xizmatlar** | **23,9** | **22,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar | 7,1 | 6,6 |

| | | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,0 | 4,8 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 11,8 | 11,3 |

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*






YaHMning o`sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`sish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`sish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 104,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 25,1 %), sanoatda – 103,0 % (47,3 %), qurilishda – 100,9 % (4,9 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda o`zgarishsiz qoldi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda 100,1 % (6,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,7 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 98,3 % (11,3 %)ni tashkil etdi.

**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*






2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlari YaHMning mos ravishda 0,9 f.p. (2019- yilning yanvar-sentabrida-0,1 f.p.) va 1,3 f.p. (2019- yilning yanvar-sentabrida-2,4 f.p.)ga o'sishiga hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,2 f.p. (2019- yilning yanvar-sentabrida-0,6 f.p.)ga o'sishi ta'minlandi.

## 2020-yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi *(jamiga nisbatan % da)*




2020- yil yanvar-sentabrida YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 118,6 % va sanoatda – 117,5 % qayd etildi.

## Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

